

**LAVANDA (LAVANDULA ANGUSTIFOLIA) O'SIMLIGINING
KIMYOVIY TARKIBI VA XALQ TABOBATIDAGI AHAMIYATI****ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ И ЗНАЧЕНИЕ ЛЕКАРСТВЕННОГО
РАСТЕНИЯ ЛАВАНДЫ (LAVANDULA ANGUSTIFOLIA)****CHEMICAL COMPOSITION AND MEDICINAL VALUE OF LAVENDER
(LAVANDULA ANGUSTIFOLIA)****Do'saliyeva Safura Shavkatjon qizi***Farg'ona davlat universiteti kimyo kafedrası o'qituvchisi.***Xoshimova Tursunoy Jo'rabek qizi****Xamdamova Madina Ozodbek qizi***Farg'ona davlat universiteti talabalari.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Lamiaceae oilasiga kiruvchi tur o'simliklarning tarqalishi, biologik tasnifi hamda dorivor ahamiyatga ega bo'lgan lavanda (*Lavandula angustifolia* Mill.) zaxiralari yoritilgan. Xalq tabobatida lavandaning qo'llanish sohalari, xususan asosan asab tizimi kasalliklari, uyqusizlik, bosh og'rig'i va nafas yo'llari muammolariga qarshi ishlatilishi haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, lavandani madaniylashtirish, parvarishlash va xo'jalikda keng qo'llash imkoniyatlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Lavanda, barg, gullar, mevasi, dorivor.

Аннотация: В данной статье рассматривается распространение и биологическая классификация растений семейства Lamiaceae, а также освещаются запасы лекарственного растения лаванды (*Lavandula angustifolia* Mill.). Приводятся сведения о применении лаванды в народной медицине, в частности при заболеваниях нервной системы, бессоннице, головных болях и нарушениях дыхательных путей. Кроме того, представлены данные о введении лаванды в культуру, её выращивании, уходе и широком использовании в хозяйственной практике.

Ключевые слова: Лаванда, лист, цветки, плод, лекарственное.

Annotation: This article discusses the distribution and biological classification of plants belonging to the Lamiaceae family, with a focus on the medicinal plant lavender (*Lavandula angustifolia* Mill.). Information is provided on the reserves of lavender and its applications in folk medicine, particularly for nervous system disorders, insomnia, headaches, and respiratory conditions. In addition, data on the cultivation, care, and broad use of lavender in agricultural practice are presented.

Key words: Lavender, leaf, flowers, fruit, medicinal.

Lavandadoshlar Lamiaceae o'simliklar oilasi yer sharining tropik, subtropik va o'rtacha mintaqalarida keng tarqalgan bo'lib, taxminan 250 turkum va 7000 ga yaqin turga ega [1]. Ushbu oilaning vakillari o'tlar, butalar, chala butalar va kamdan-kam hollarda daraxtlar shaklida uchraydi. Barglari ko'pincha qarama-qarshi joylashgan, oddiy yoki tishli, gullari ikki jinsli, kosachasi va guloshe 5 tasi, changchisi 4 ta. Mevasi yong'oqcha shaklida bo'ladi. Lavandadoshlar asosan O'rta yer dengizi, Osiyo va Afrikada keng tarqalgan. Oilaning iqtisodiy va dorivor ahamiyatga ega vakillariga lavanda, yalpiz, rozaemali, odyol, ishbon va salom hamda zanjabil kiradi. Ko'plab turlari efir moylari va fitotsidlarga boy bo'lib, xalq tabobati va farmatsiyada qo'llaniladi.

Lavanda (*Lavandula angustifolia* Mill.) lavandadoshlar (Lamiaceae) oilasiga mansub ko'p yillik butador dorivor osimlik bo'lib, dunyoning ko'plab mintaqalarida, jumladan O'zbekistonda keng tarqalgan [3]. O'zbekistonda bog'lar, shifobaxsh o'simliklar plantatsiyalari va tabiiy sharoitlarda uchraydi. Poyasi tik, yog'ochsimon, balandligi 30-60 sm gacha yetadi [2]. Barglari tor cho'zinchoq, kulrang-yashil rangli. Gullari mayda, ko'k binafsha rangli, iyun-iyul oylarida gullaydi. Mevasi mayda yong'oqchalar bo'lib, avgust-sentabr oylarida pishadi. Bir osimlikdan 1000 ga yaqin urug' hosil bo'ladi, urug'lari tuproqda 3-5 yil unuvchanligini saqlaydi.

Lavanda o'simligining kimyoviy tarkibida efir moylari (linalol, linalil asetat, kineol), flavonoidlar, fenolkarbon kislotalar, taninlar, shuningdek, mikro va makroelementlar mavjudligi aniqlangan. Ushbu biologik faol moddalar o'simlikning shifobaxsh xususiyatlarini belgilaydi.

Xalq tabobatida lavanda gullari va barglari asab tizimi kasalliklari, uyqusizlik, bosh og'rig'i, yallig'lanish jarayonlari hamda ovqat hazm qilish buzilishlarida qo'llaniladi [4]. Ayrim hollarda tashqi surtmalar sifatida teri kasalliklari va yaralarda foydalaniladi. Biroq tarkibida yuqori konsentratsiyali efir moylari mavjudligi sababli lavandadan ehtiyotkorlik bilan foydalanish tavsiya etiladi.

Shu sababli bilan ushbu tadqiqot ishining maqsadi lavanda (*Lavandula angustifolia* Mill.) o'simligining kimyoviy tarkibini o'rganish va xalq tabobatidagi ahamiyatini ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqotlar davomida o'simlikning bargi, poyasi va gullari tarkibidagi biologik faol moddalarga xos sifat reaksiyalarini o'tkazish, shuningdek, efir moylari, vitaminlar, mineral moddalar miqdorini aniqlash rejalashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Lis-Balchin, Maria (ed.): Lavender: The Genus Lavandula. Taylor & Francis US, 2002. ISBN 0-415-28413-4.
3. “Genus: Lavandula L.” Germplasm Resources Information Network. United States Department of Agriculture. 2009-09-01. Retrieved 2010-12-13.
4. Lis-Balchin M. Essential oils and aromatic plants / Handbook of aromatic plants. — New York: Food Products Press, 2002. — 264 p.